

OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA TERMINOLOGIK, LEKSIK BOYLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Jamalova Dilafruz Komiljon qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda terminologik va leksik boylikni oshirish muammosi yoritilgan. Ilmiy tahlilda hozirgi zamon mutaxassislaridan talab etilayotgan kasbiy kommunikativ savodxonlik, til kompetensiyasi hamda texnologik terminologiyani to'g'ri qo'llash ko'nikmalari alohida e'tiborga olingan. Maqolada o'quv jarayonida o'zbek, rus va ingliz tillarida terminologik lug'at boyligini kengaytirish, kasbiy matnlar bilan ishlash, o'quv topshiriqlarini integratsion yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarga terminologik yo'naltirilgan ta'limni samarali tashkil etishda amaliy yordam beradi.

Kalit so'zlar: terminologik kompetensiya, kasbiy kommunikatsiya, leksik boylik, oziq-ovqat texnologiyasi, integratsion yondashuv, mutaxassislik tili, CLIL, lingvodidaktika.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОГО И ЛЕКСИЧЕСКОГО БОГАТСТВА СТУДЕНТОВ-ТЕХНОЛОГОВ ПИЩЕВОЙ ПРОДУКЦИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: В статье рассматривается проблема совершенствования терминологического и лексического запаса студентов направления «Технология продуктов питания» в процессе формирования их профессиональной компетентности. Особое внимание уделено необходимости развития у будущих специалистов навыков профессиональной коммуникации, владения специализированной лексикой и правильного употребления терминов в профессиональной речи. В исследовании предлагаются методические рекомендации по расширению терминологического словаря студентов посредством интегративного обучения на узбекском, русском и английском языках, а также через работу с профессиональными текстами. Полученные результаты могут быть использованы преподавателями для повышения эффективности обучения профессионально-ориентированному языку.

Ключевые слова: терминологическая компетенция, профессиональная коммуникация, лексическое обогащение, технология пищевых продуктов, интегративный подход, язык специальности, CLIL, лингводидактика.

IMPROVING THE TERMINOLOGICAL AND LEXICAL WEALTH OF FOOD TECHNOLOGY STUDENTS IN INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCE

Abstract: *The article focuses on enhancing the terminological and lexical competence of students majoring in Food Technology as a key component in developing their professional competence. The study emphasizes the importance of mastering professional communication, domain-specific vocabulary, and the correct usage of technological terminology. Methodological recommendations are proposed for expanding students' terminological repertoire through integrative teaching approaches in Uzbek, Russian, and English languages, as well as through systematic work with professional texts. The findings are expected to assist educators in improving the effectiveness of professionally oriented language instruction.*

Keywords: *terminological competence, professional communication, lexical enrichment, food technology, integrative approach, language for specific purposes, CLIL, linguodidactics.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi mutaxassis tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishni ham taqozo etadi. Ayniqsa, oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishidagi talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda til va terminologik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu sohada ishlaydigan mutaxassis zamonaviy texnologik jarayonlarni, innovatsion ishlab chiqarish terminlarini, xalqaro standartlarga asoslangan atamalarni to'liq anglab, ulardan amaliyotda to'g'ri foydalana olishi zarur. Shu nuqtai nazardan, terminologik va leksik boylikni oshirish kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

XXI asr ta'lim paradigmasi, xususan, UNESCO, OECD, hamda O'zbekiston Respublikasi «Milliy o'quv dasturi» talablari asosida kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va ESP (English for Specific Purposes) kabi xalqaro didaktik yo'nalishlar asosida mutaxassislik tilini o'qitish amaliyoti kengaymoqda. Ushbu metodik yondashuvlar talabalarda terminologik bilimlarni kontekstual va funksional qo'llay olishni, ya'ni «bilimni real kasbiy vaziyatda ishlatish» ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida «Oziq-ovqat texnologiyasi» yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv jarayonini leksik va terminologik jihatdan boyitish muhim ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Ko'pgina hollarda o'quv dasturlarida

til komponenti ikkinchi darajali o'rin egallaydi, natijada talabalarning mutaxassislik tilida fikrlash va muloqot qilish qobiliyati yetarli darajada shakllanmaydi. Shu bois, terminologik boylikni oshirish, kasbiy matnlarni tahlil qilish, fanlararo integratsiyani ta'minlash, va amaliy kommunikativ mashg'ulotlarni ko'paytirish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik va leksik boylikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvni ishlab chiqishdir. Tadqiqotning dolzarbligi hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonlari, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik muvozanat, va innovatsion texnologiyalar sharoitida mutaxassisdan yuqori terminologik savodxonlikni talab etishi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu jarayon ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish, va lingvokulturologik kompetensiyani kengaytirish bilan chambarchas bog'liq.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayoni oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida terminologik va leksik boylikni oshirish metodikasini takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim konsepsiyasi, Milliy o'quv dasturi (2021), hamda UNESCO va OECD tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy ta'lim modeli talablari asosida belgilandi.

Tadqiqotning empirik bazasini Namangan davlat universitetining oziq-ovqat texnologiyasi fakulteti talabalari tashkil etdi (2023–2025-yillar). Tanlov asosida 120 nafar talaba, 8 nafar o'qituvchi va 4 nafar metodist ishtirok etdi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi:

I. Diagnostik bosqichda - talabalar terminologik va leksik bilim darajalari, kasbiy muloqot ko'nikmalari, hamda mutaxassislik tili bilan ishlash qobiliyati maxsus test va so'rovnomalar orqali baholandi.

II. Tajriba-bosqichda - CLIL (Content and Language Integrated Learning), LSP (Language for Specific Purposes), hamda «lexical approach» metodlari asosida integratsion mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda real kasbiy matnlar

(texnik hujjatlar, ishlab chiqarish protokollari, xalqaro oziq-ovqat standartlari) asosida terminologik tahlil o'tkazildi.

III. Tahliliy-reflektiv bosqichda - o'qituvchilar va talabalar o'rtasida refleksiya asosida o'zgarishlar tahlil qilinib, kasbiy leksik boylik darajasining oshganligi aniqlashtirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy metodlar: pedagogik, psixolingvistik va lingvodidaktik manbalarni tahlil qilish, konseptual model yaratish.

Empirik metodlar: kuzatish, testlash, so'rovnoma, suhbat va portfolioni tahlil qilish.

Tadqiqotda o'quv materiallari sifatida «Oziq-ovqat texnologiyasi» yo'nalishiga oid maxsus terminologik lug'atlar, xalqaro CLIL modullari, hamda talabalarning yozma ishlaridan olingan korpus ma'lumotlari foydalanildi. Olingan natijalar tahlili asosida terminologik va leksik kompetensiyani oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida kasbiy kompetentlik tushunchasi o'qitish jarayonining markaziy kategoriyasiga aylangan. UNESCO hamda OECD hisobotlarida qayd etilishicha, mutaxassislik fanlari bilan til o'rganish integratsiyasi bugungi ta'limda eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishidagi talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun terminologik va leksik boylikni oshirish zaruriy omil sifatida qaraladi (Muslimov N.A., 2022; Pastushkova M.A., 2021).

O'zbekiston pedagog olimlari orasida ham ushbu masala chuqur tadqiq qilinmoqda. A.X.Mahmudov va F.M.Rustamova ta'kidlaganidek, terminologik tayyorgarlik - mutaxassislik tili madaniyatining asosi bo'lib, talabaning bilimini real kasbiy muhitda qo'llay olish qobiliyatini belgilaydi. Xorijiy manbalarda bu yo'nalish CLIL, ESP, hamda LSP konsepsiyalari orqali chuqur o'rganilgan. Coyle ta'riflaganidek, CLIL metodikasi ikki yo'nalishni - mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Shu tariqa, texnik yo'nalish talabalarida soha terminlarini o'zlashtirish jarayoni nafaqat til bilimini, balki kasbiy

tafakkurni ham rivojlantiradi. Vigotskiy va Piaget kognitiv nazariyalari asosida esa, talabalarning terminologik o'sishi ularning aqliy faoliyat bosqichlari bilan bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Milliy o'quv dasturi doirasida «kasbiy tilda muloqot qila olish», «axborotni tahlil etish», «muammoni yechish» kabi ko'nikmalar bazaviy kompetensiyalar sifatida belgilangan. Bu esa terminologik boylikni o'quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilishni talab etadi. CLIL asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlarda talabalar fanlararo kontekstda, masalan, oziq-ovqat kimyosi, mikrobiologiya, texnologik jarayonlar va ekologik xavfsizlik kabi fanlar atamaları bilan ishlaydi. Shu tarzda lingvistik va kasbiy komponent bir-birini to'ldiradi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan (Halliday, 1994; Richards, 2015), kasbiy leksikani o'rgatishda semantik maydonlar, morfologik struktura, sinonimik qatlam va terminlarning kontekstual qo'llanishi tahlil qilinishi lozim. Mahalliy amaliyotda, afsuski, ko'p hollarda terminologik lug'at passiv shaklda - ya'ni yodlashga asoslangan - o'rgatiladi. Ammo zamonaviy yondashuvlarda, masalan, kommunikativ-situativ metod (Richards & Rodgers, 2001), DDL (Data-Driven Learning), va korpus lingvistikasiga asoslangan mashqlar orqali o'quvchi o'zi terminning ma'nosini, strukturasi va qo'llanishini mustaqil kashf etadi. Terminologik va leksik kompetensiyani rivojlantirish nafaqat til bilimini chuqurlashtiradi, balki talabaning kasbiy identitetini shakllantiradi. Bu jarayon, ayniqsa, oziq-ovqat texnologiyasi sohasida ekologik mas'uliyat, sifat nazorati, xavfsizlik va innovatsion ishlab chiqarish terminlarini to'g'ri qo'llashni ta'minlaydi. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni isbotlaydiki, terminologik boylikni oshirish - bu lingvistik emas, balki keng qamrovli kasbiy rivojlanish omili bo'lib, uni CLIL, fanlararo integratsiya, refleksiv mashg'ulotlar va interaktiv lug'at ishlari orqali samarali amalga oshirish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonining har bir bosqichi natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun terminologik va leksik boylikni rivojlantirish nafaqat til o'rganish

samaradorligini, balki ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish darajasini ham sezilarli oshiradi.

Dastlabki tahlilda talabalar ko'pchiligi kasbiy terminologiyani to'g'ri tushunishda, ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llashda qiynalgan. O'tkazilgan 20 ta savoldan iborat diagnostik test natijalariga ko'ra: talabalarning 64 foizi terminni faqat tarjima asosida bilgan; 52 foiz talaba terminning mazmunini tushunmagan holda uni yod olgan; atigi 18 foiz talaba terminni kontekstda to'g'ri ishlata olgan. Bu holat ko'rsatadiki, mavjud o'quv jarayonida terminologik tayyorgarlik alohida tizimga ega emas, u leksik boylikni rivojlantirishning ongli, bosqichma-bosqich shakllanishiga e'tibor qaratmaydi.

Tajriba jarayonida o'quv mashg'ulotlari CLIL, LSPva leksik yondashuv asosida tashkil etildi. Har bir modulda talabalar kasbiy matnlarni o'qish, tahlil qilish, terminologik xarita tuzish, interaktiv lug'at yaratish kabi faol topshiriqlarni bajardilar. Masalan, «Oziq-ovqat gigiyenasi va xavfsizligi» modulida o'quvchilar «sanitariya», «mikroflora», «sterilizatsiya», «konservatsiya» kabi atamalarni nafaqat yodlash, balki real ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish orqali o'rganishdi. Ular laboratoriya kuzatuvlarida terminlardan foydalanib, hisobot matnlarini tuzdilar. Bu metodologiya o'quvchini subyektga aylantirish, ya'ni o'z bilimini faol yaratish tamoyiliga asoslandi. Tajriba davomida o'qituvchi roli o'zgardi - u endi «bilim beruvchi» emas, balki «jarayonni boshqaruvchi fasilitator» sifatida faoliyat yuritdi. Talabalar esa til va mazmunni integratsiyalashgan holda o'zlashtirib, mutaxassislik tili orqali kasbiy fikrlashni o'rgandilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba yakunida talabalar o'rtasida terminlarni to'g'ri ishlatish, sinonimlarni farqlash va kontekstni tahlil qilish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlandi. Tahlil quyidagicha taqsimlanadi:

Ko'nikma turi	Boshlang'ich daraja (%)	Yakuniy daraja (%)	O'sish foizi
Terminlarni izohlash	28	86	+58
Kontekstda qo'llash	18	79	+61
Matndan xulosa chiqarish	34	82	+48

Uch tilda atamalarni taqqoslash	22	71	+49
------------------------------------	----	----	-----

Bu natijalar lingvokognitiv o'sishni isbotlaydi, ya'ni talaba terminni shunchaki so'z emas, balki ma'noli birlik sifatida anglay boshlagan. Bu esa professional tafakkurning semantik asosini mustahkamlaydi. Reflektiv bosqichda o'tkazilgan suhbatlar, yozma fikrlar va portfoliolar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar terminologik bilimni amaliyot bilan bog'lay olishdan mamnun. 87 foiz talaba yangi metodika o'z fikrini mutaxassislik terminlari orqali aniqroq ifoda etishga yordam berganini ta'kidladi. 79 foiz ishtirokchi esa ko'p tillilik (uzb–rus–ingliz) asosida o'qitish o'ziga ishonchni oshirganini qayd etdi. O'qituvchilar fikricha, CLIL asosidagi darslar nafaqat tilni, balki fan mazmunini ham chuqur o'zlashtirishga xizmat qilgan.

Terminologik o'qitishning samaradorligi o'quvchilarning psixolingvistik faolligiga bog'liq. Tilning faol ishlatilishi - ayniqsa, muloqot, taqqoslash, tushuntirish jarayonlarida - kognitiv faollikni oshiradi. Shu sababli, o'quvchi terminni eslab qolmaydi, balki uni fikr va tahlil vositasi sifatida ishlatadi. Bu jarayon metakognitiv yondashuvni kuchaytiradi - o'quvchi o'z bilimini nazorat qiladi, refleksiya orqali xatolarni aniqlaydi va o'zi tuzatadi. Shunday qilib, terminologik o'rganish til, tafakkur va kasbiy faoliyat o'rtasida tabiiy aloqadorlikni yuzaga keltiradi.

Tajriba davomida Data-Driven Learning (ma'lumotga asoslangan o'qitish) texnologiyasi qo'llanildi. Talabalar o'z yozma ishlari korpusidan atamalarni izlab, ularning ishlatilish chastotasi, morfologik variantlari va kontekstual o'zgarishini kuzatishdi. Bu jarayon orqali ularning til sezgirligi (language awareness) rivojlandi. Masalan, «emulsiya», «fermentatsiya», «koagulyatsiya» terminlari 10 dan ortiq kontekstda tahlil qilinib, har bir terminning texnologik, biologik va kimyoviy konnotatsiyalari o'rganildi. Natijada, o'quvchilar terminni ko'p funksiyali birlik sifatida qabul qila boshladilar. Ushbu natijalar bir necha xalqaro tadqiqotlar bilan uyg'unlikda. Xususan, Coyle CLIL modelining kognitiv afzalligini, ya'ni «4C framework» - content, communication, cognition, culture - ni ta'riflagan. Tadqiqot natijalari ham aynan shu 4C printsiptiga mos: o'quvchilar mazmunni (content) o'zlashtiradi, muloqot qiladi (communication), tahlil qiladi (cognition) va o'z sohasiga madaniy nuqtai nazardan qaraydi (culture). Mahalliy kontekstda esa Shirinova va

Yuldosheva ishlarida terminologik kompetensiya mutaxassislik identitetining ajralmas qismi sifatida baholangan. Ushbu maqoladagi eksperiment ana shu nazariy asoslarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi: o'quvchi o'z mutaxassislik tili orqali kasbiy fikrlash darajasiga ko'tariladi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, terminologik va leksik boylikni oshirishga qaratilgan innovatsion metodika kasbiy tafakkur, muloqot madaniyati va amaliy tahlil kompetensiyalarini chuqur rivojlantiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik va leksik boylikni rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Leksik-terminologik bilim talabaning kasbiy tili, muloqot madaniyati, kognitiv fikrlash va amaliy faoliyatini uyg'unlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'tkazilgan tajriba natijalari terminologik tayyorgarlikni oshirish orqali talabalarda kasbiy identifikatsiya, refleksiya, va analitik tafakkurning rivojlanganini isbotladi.

1. Asosiy ilmiy-pedagogik xulosalar quyidagilardan iborat: Terminologik kompetensiya - kasbiy kompetentligining ajralmas qismi bo'lib, mutaxassisning fikrlash, tahlil va muloqot qobiliyatlarini belgilaydi.

2. CLIL yondashuvi tilni mazmun bilan bog'lab o'qitish imkonini beradi, natijada o'quvchi atamani izohlash emas, uni faol kommunikativ kontekstda ishlatishni o'rganadi.

3. Leksik boylikni oshirish o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, fanlararo aloqadorlikni mustahkamlaydi va o'qitish jarayonining motivatsion komponentini kuchaytiradi.

4. Fanlararo integratsiya asosidagi mashg'ulotlar terminologik bilimni oziq-ovqat kimyosi, mikrobiologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi kabi fanlar bilan uzviy bog'laydi.

5. Metodikaning psixolingvistik asosi shundan iboratki, talaba terminni muloqot jarayonida anglaydi, uni fikrni shakllantirish vositasiga aylantiradi

6. Refleksiv yondashuv (portfoliolar, o'zini baholash, jurnal yozish) terminologik rivojlanishni monitoring qilishda samarali natija beradi.

7. Data-Driven Learning (DDL) va korpus lingvistika asosidagi topshiriqlar o'quvchini faol tahlilchi va mustaqil tadqiqotchiga aylantiradi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishidagi ta'lim jarayoniga terminologik-lingvistik komponentni tizimli kiritish orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning yangi modelini taklif etadi. Bu model o'z ichiga maqsad, mazmun, metod, vosita, baholash va refleksiya bosqichlarini qamrab olgan. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodika va natijalar kelgusida boshqa texnik sohalar - biotexnologiya, kimyo muhandisligi, ekologiya va mexanika yo'nalishlariga ham moslashtirilgan holda qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagi metodik yo'nalishlar tavsiya qilinadi:

1. Integratsion mashg'ulotlarda har bir terminni amaliy misol, texnologik jarayon yoki keys bilan bog'lash;
2. Fanlararo loyihalar asosida leksik va terminologik lug'at yaratish;
3. Refleksiya kundaliklari (journal writing) orqali talabaning termin bilan ishlash dinamikasini baholash;
4. Korpus tahlili va DDL vositalarini muntazam qo'llash;
5. Modulli mashg'ulotlar tizimi orqali terminologik o'rganishni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov A.X. Oliy ta'limda kasbiy tilni o'qitishning lingvometodik asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Muslimov N.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. - Toshkent, 2022.
3. Rustamova F.M. Lingvodidaktik integratsiya asosida leksik kompetensiyani rivojlantirish. // «Pedagogik ta'lim jurnali». – 2021. – №2.
4. Shirinova Z.X. Mutaxassislik tili va CLIL yondashuv asosida kasbiy muloqotni rivojlantirish. // «Innovatsion ta'lim texnologiyalari», 2020.
5. Yuldosheva M.R. Terminologik tayyorgarlikning psixolingvistik asoslari. // «Oliy ta'lim muammolari jurnali», 2022. – №4.
6. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. - Cambridge University Press, 2010.
7. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes. - Cambridge University Press, 1998.
8. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. - Cambridge University Press, 1987.
9. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. - London: Edward Arnold, 1994.

10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge University Press, 2001.
11. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 1972.
12. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Harvard University Press, 1982.
13. OECD. Future of Education and Skills 2030: Conceptual Learning Framework. - Paris, 2023.
14. UNESCO. Competency-Based Education for Sustainable Development. - Paris, 2021.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi. - Toshkent, 2021.
16. Rahimov D.R. Oliy ta'limda fanlararo integratsiyaning metodologik asoslari. - Toshkent: TDPU, 2022.
17. Abdurahmonova Z.M. Talabalarning kommunikativ savodxonligini shakllantirishda CLIL yondashuvi samaradorligi. // «Ta'limda integratsiya jurnali». – 2023. – №3.